“O‘ZBEKISTON MILLIY ELEKTR TARMOQLARI”AKSIYADORLIK JAMIYATIDA ISHGA QABUL QILINAYOTGAN NOMZODLARNI TEKSHIRISH BO‘YICHA YO‘RIQNOMA

“O‘ZBEKISTON MILLIY ELEKTR TARMOQLARI”
AKSIYADORLIK JAMIYATI
Toshkent

So‘zboshi

1 Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati tomonidan ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN

2 “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJning 2026.07.09 dagi 215 -sonli buyrug‘i bilan TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN

3 BIRINCHI BOR KIRITILGAN

Mundarija

1. Umumiy qoidalar..... 1
2. Atama va qisqartmalar 2
3. Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish tartibi 5
4. “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJning filiallariga ishga kiruvchi nomzodlar bilan ishlash 11
5. Yakuniy qoidalar 12

A-Ilova..... 13

B-Ilova..... 14

C-Ilova..... 17

D-Ilova..... 20

Axborot ma’lumotlari..... 21

O‘zMETH 34-319:2026

Tasdiqlayman

“O‘zbekiston MET” AJ
boshqaruvi raisi

A.A. Nazirov

“O‘ZBEKISTON MILLIY ELEKTR TARMOQLARI”AKSIYADORLIK JAMIYATIDA ISHGA QABUL QILINAYOTGAN NOMZODLARNI TEKSHIRISH BO‘YICHA YO‘RIQNOMA

Amalga kiritish sanasi 2026.10.09

1 Umumiy qoidalar

1.1 “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyatiga (keyingi o‘rinlarda – “Jamiyat”) ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha Yo‘riqnoma (keyingi o‘rinlarda – “Yo‘riqnoma”) Jamiyatning ichki hujjati bo‘lib, ishga nomzodlarni qabul qilishda tekshirish tamoyillari, talablari, tartibi va muddatlarini belgilaydi.

1.2 Mazkur Yo‘riqnoma talablarini amalga oshirish, hisobini yuritish va nazorat qilish uchun Inson resurslari bilan ishlash va rivojlantrish boshqarmasi, Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati, shuningdek, jarayonda ishtirok etuvchi Jamiyat markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari mas’ul hisoblanadi.

1.3 Mazkur Yo‘riqnomaning maqsadlari quyidagilardan iborat:

- nomzod tomonidan o‘zi, kasbiy faoliyati, boshqa jismoniy va yuridik shaxslar, jumladan davlat mansabdor shaxslari bilan qarindoshlik va tijorat aloqalari to‘g‘risida taqdim etilgan ma’lumotlarni tekshirish;

- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda Jamiyatning ichki hujjatlari talablariga muvofiq ravishda o‘z lavozim majburiyatlarini vijdonan, sifatli, malakali va xolis bajarishga qodir bo‘lgan jismoniy shaxslar bilan mehnat munosabatlarini rasmiylashtirish;

- Jamiyatda lavozim majburiyatlarini bajarish uchun yetarli bilim va

tajribaga ega bo‘lmagan, huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo‘lgan va/yoki ishga qabul qilinishi Jamiyat uchun obro‘-e’tibor, korrupsiyaviy va/yoki boshqa xatarlarni keltirib chiqaradigan nomzodlar bilan mehnat munosabatlariga kirishish xavfini minimallashtirish;

- rahbarlik va moddiy javobgarlik yuklatilgan lavozimlarga malakali, halol, vijdonli va qonunga rioya qiluvchi xodimlarni tanlashni amalga oshirish;

- tasarrufdagi filiallarda mavjud vakant lavozimlar ochiqligini ro‘yobga chiqarish, nomzod talabgorlarni suhbat hamda test sinovlaridan o‘tkazishda shaffoflikni ta’minlash, turli korrupsiyaviy salbiy holatlarni oldini olishdir.

1.4 Mazkur Yo‘riqnoma talablari Jamiyat xodimlari tomonidan majburiy ravishda bajarilishi shart.

1.5 Mazkur Yo‘riqnoma asosida Jamiyat qarorlarini qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan filiallar, ishga nomzodlarni tekshirish bo‘yicha mazkur Yo‘riqnomaga zid bo‘lmagan o‘xshash ichki hujjatlarni ishlab chiqadilar.

2 Atamalar va qisqartmalar

2.1 Kiritilgan atamalar va ta’riflar:

Yaqin qarindoshlar – ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o‘g‘illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari.

Davlat mansabdor shaxsi:

- O‘zbekiston Respublikasi yoki xorijiy davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi yoki sud hokimiyati organlarida tayinlanadigan yoki saylanadigan lavozimni egallagan har qanday shaxs;

- O‘zbekiston Respublikasi yoki xorijiy davlat uchun, shu jumladan davlat organi, korxona yoki muassasa uchun davlat funksiyalarini bajaruvchi har qanday shaxs;

- xalqaro tashkilotning har qanday mansabdor shaxsi yoki vakili;
- siyosiy arboblar, siyosiy partiyalar mansabdor shaxslari, shu jumladan siyosiy lavozimlarga nomzodlar.

Tashabbuskor – Inson resurslari bilan ishlash va rivojlantrish boshqarmasi xodimi bo‘lib, u ishga nomzodni tekshirish uchun Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmatiga so‘rov yuboradi.

Ijrochi – Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati xodimi bo‘lib, u nomzodni bevosita tekshiradi.

Nomzod – Jamiyatning bo‘sh ish o‘rni talablariga javob beradigan bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lgan, kasbiy tanlovdan o‘tgan va Jamiyatning bo‘sh lavozimiga tanlab olingan jismoniy shaxs.

Manfaatlar to‘qnashuvi – xodimning shaxsiy manfaatdorligi (to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita) uning lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatadigan yoki ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda bunda xodimning shaxsiy manfaatdorligi bilan Jamiyatning huquq va qonuniy manfaatlari o‘rtasida ziddiyat yuzaga keladigan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat.

Korrupsiyaviy harakatlar:

- Davlat mansabdor shaxsiga (pora, poraxo‘rlik), tijorat tashkiloti vakiliga (tijorat porasi) yoki har qanday boshqa shaxsga uning harakatlariga ta’sir ko‘rsatish (harakatsizligini ta’minlash) va uni lavozim majburiyatlarini lozim darajada bajarmaslikka undash va/yoki Jamiyat uchun, shu jumladan tijorat maqsadlarida, noo‘rin ustunlikka erishish maqsadida noqonuniy foydani taklif qilish, va’da berish, ruxsat etish yoki berish;
- rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlarni amalga oshirish;
- o‘z lavozim mavqeidan noqonuniy foydalanish maqsadida shuningdek, o‘ziga yoki uchinchi shaxslarga noqonuniy foyda olish maqsadida har qanday shaxslardan noqonuniy foydani talab qilish, tovlamachilik qilish yoki so‘rash, uni olishga rozilik bildirish yoki olish, shuningdek, xizmat mavqeini suiiste’mol

qilish, vakolatlarni suiiste’mol qilish hamda Jamiyatning qonuniy manfaatlariga zid ravishda xodim tomonidan o‘z lavozim mavqeidan boshqacha tarzda noqonuniy foydalanish;

- poraxo‘rlik yoki tijorat porasida vositachilik qilish, shu jumladan noqonuniy foydani oluvchiga yetkazish yoxud oluvchi yoki beruvchi shaxsga ular o‘rtasida noqonuniy foydani olish va berish to‘g‘risidagi kelishuvga erishish yoki uni amalga oshirishda ko‘maklashish;

- xodimlarning korrupsiya alomatlarini o‘z ichiga olgan yoki uni sodir etishga ko‘maklashadigan boshqa harakatlari/harakatsizligi, shu jumladan manfaatlar to‘qnashuvi holatlari.

Shaxsiy manfaatdorlik – xodimning o‘zi va/yoki uning yaqin qarindoshlari tomonidan pul mablag‘lari, boshqa mol-mulk, shu jumladan mulkiy huquqlar, mulkiy xususiyatga ega xizmatlar, bajarilgan ishlar natijalari yoki har qanday boshqa foyda (ustunlik) olish imkoniyati bilan bog‘liq manfaatdorligi.

Noqonuniy foyda – qonuniy asoslar mavjud bo‘lmagan holda va’da qilinadigan, taklif etiladigan, taqdim etiladigan yoki olinadigan pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk yoxud mulkiy huquqlar, ustunliklar, imtiyozlar, xizmatlar, nomoddiy aktivlar hamda har qanday boshqa moddiy yoki nomoddiy foyda.

Jamiyat – “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati.

Jamiyat xodimlari – mazkur Yo‘riqnoma maqsadlari uchun ushbu tushuncha Jamiyat bilan tuzilgan mehnat shartnomalari asosida o‘z funksional majburiyatlarini bajaruvchi xodimlarni, shuningdek, Jamiyat Boshqaruvi a’zolarini ham o‘z ichiga oladi.

Onlayn anketa – “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJdagi vakant lavozimlarni e’lon qilish va ishga kirish bo‘yicha nomzodlarni rezyume anketa qabul qilish avtomatlashtirilgan tizimi. Jamiyat rasmiy saytida quyidagi manzilda joylashtirilgan https://www.uzbekistonmet.uz/oz/appeal/resume.

Xulosa – Ishga kirish bo‘yicha nomzodning mavjud vakant lavozimga malakaviy va boshqa o‘rnatilgan tartibdagi talablarga mos kelish/kelmasligi to‘g‘risidagi xulosa.

2.2 Mazkur Yo‘riqnomada qo‘llanilgan, biroq unda ta’riflanmagan atamalar Jamiyatning boshqa ichki normativ hujjatlarida va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida qo‘llaniladigan ma’noda ishlatiladi.

3 Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish tartibi

3.1 Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirishni o‘tkazish bo‘yicha umumiy talablar va muddatlar.

3.1.1 Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish uchun mas’ul – Inson resurslari bilan ishlash va rivojlantrish boshqarmasi hamda Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati hisoblanadi.

3.1.2. Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati va Inson resurslari bilan ishlash va rivojlantrish boshqarmasining mas’ul xodimlari kelib tushgan so‘rovlar asosida departament, boshqarma, bo‘lim, xizmat, ofislar boshliqlari lavozimlariga, shuningdek, ularning funksiyalarini (vaqtincha yoki doimiy ravishda) bajaruvchi shaxslar lavozimlariga nomzodlarni tekshiradi.

3.1.3 Yuqoridagi bandga muvofiq tekshiruvdan o‘tishi lozim bo‘lgan ishga nomzod Jamiyatda belgilangan tartibda kasbiy tanlov va/yoki test sinovlaridan muvaffaqiyatli o‘tgandan so‘ng, Inson resurslari bilan ishlash va rivojlantrish boshqarmasi mazkur nomzodni tekshirish uchun Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmatiga so‘rov yuborishi shart.

3.1.4 Nomzodni tekshirish ijrochi tomonidan mazkur Yo‘riqnomaning 2.1-bandida nazarda tutilgan hujjatlar va ma’lumotlar ilova qilingan holda ariza olingan kundan boshlab 10 (o‘n) ish kuni ichida amalga oshiriladi. Agar belgilangan muddatlarda tekshiruvni o‘tkazish obyektiv sabablarga ko‘ra

imkonsiz bo‘lsa, tekshiruv muddati yana 5 (besh) ish kunigacha uzaytirilishi mumkin.

3.1.5 Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish ish beruvchi sifatida Jamiyat manfaatlarini ko‘zlab, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga, O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida” 2019-yil 2-iyuldagi O‘RQ-547-son Qonuniga, shuningdek, Jamiyatning ichki hujjatlariga muvofiq ravishda amalga oshiriladi hamda har tomonlama xolis bo‘lishi lozim.

3.2 Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish uchun hujjatlar va ma’lumotlarni olish.

3.2.1 Tekshiruvni o‘tkazish uchun Inson resurslari bilan ishlash va rivojlantrish boshqarmasi mas’ul xodimi Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmatiga quyidagilarni taqdim etishi shart:

- nomzodni qaysi lavozim va qaysi bo‘linmaga tanlanayotgani ko‘rsatilgan holda ishga nomzodni tekshirish to‘g‘risida so‘rov;
- O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 124-moddasiga muvofiq ishga qabul qilishda talab etiladigan hujjatlar nusxalari;
- nomzod tomonidan imzolangan shaxsga doir ma’lumotlarni (shu jumladan yaqin qarindoshlari ma’lumotlarini) qayta ishlashga rozilik nusxasi;
- nomzod tomonidan to‘ldirilgan va imzolangan rezyume nusxasi B-ilovaga muvofiq.

3.3 Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish uchun axborot manbalari.

3.3.1 Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish doirasida Ijrochi nomzoddan olingan ma’lumotlarni, shuningdek, ochiq manbalardan yoki rasmiy so‘rovlar yuborish orqali olingan ma’lumotlarni tahlil qiladi va qayta ishlaydi.

3.3.2 Ma’lumotlarni yig‘ish Ijrochi tomonidan ishga nomzod haqida yaxlit va xolis fikr shakllantirish, shuningdek, nomzod tomonidan taqdim etilgan

hujjatlar va ma’lumotlarning, jumladan rezyumeda ko‘rsatilgan ma’lumotlarning ishonchliligini hamda uning o‘zi haqidagi ma’lumotlarni yashirish va/yoki soxtalashtirish alomatlari mavjud emasligini baholash maqsadida barcha mavjud axborot manbalaridan foydalangan holda amalga oshiriladi.

3.3.3 Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish uchun foydalaniladigan axborot manbalari qonuniylik va xolislik talablariga javob berishi lozim. Taqdim etilgan ma’lumotlarni tekshirish maqsadida tegishli davlat muassasalariga, nomzodning avvalgi ish joylariga, ta’lim muassasalariga va boshqalarga rasmiy so‘rovlar yuborishga yo‘l qo‘yiladi.

3.3.4 Jamiyat bilan mehnat shartnomasi tugatilgan yoki xizmatdan bo‘shatilgan xodimi ikki yil ichida oxirgi ish joyida o‘zi bevosita yoki bilvosita nazoratni amalga oshirgan tashkilotlar yoki ularning tarkibiy bo‘linmalari tomonidan ishga ushbu xodim mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirgan tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi nazorat bo‘linmasi vazifasini amalga oshiruvchi mansabdor shaxslarning xulosasiga asosan qabul qilinadi (O‘RQ-931-son qonuni, 8-band).

3.3.5 Nomzod to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tekshirish uchun quyidagi ochiq axborot manbalaridan foydalanilishi mumkin:

- Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tekshirish bo‘yicha Davlat xizmatlari agentligi platformasi;
- Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat reyestri (KTYaDR);
- AQShning maxsus toifadagi va taqiqlangan shaxslar ro‘yxati (yoki World-check ma’lumotlar bazasi);
- Axborot-qidiruv tizimlari (masalan, Google, Yandex va boshqalar) va boshqalar.

Mazkur ro‘yxat tekshiruvni o‘tkazish doirasida Ijrochi foydalanishi mumkin bo‘lgan tavsiya etilgan manbalar ro‘yxati bo‘lib, zarurat tug‘ilganda kengaytirilishi mumkin.

3.3.6. Ijrochi nomzoddan taqdim etilgan hujjatlar yuzasidan tushuntirish va qo‘shimcha ma’lumotlar so‘rash huquqiga ega.

Zarurat tug‘ilganda, nomzod bilan Ijrochi va/yoki Jamiyatning boshqa xodimlari ishtirokida ma’lum bir ma’lumotni aniqlashtirish va/yoki uning xulq-atvorini tahlil qilish maqsadida suhbat tashkil etilishi mumkin. Bunday suhbat o‘tkazish zarurati to‘g‘risidagi ma’lumot Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish boshqarmasi rahbari va suhbatni tashkil etish uchun mas’ul bo‘lgan Tashabbuskorga yetkaziladi.

3.4 Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish yo‘nalishlari.

3.4.1 Ijrochi ishga nomzodlarni quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha tekshiradi:

- nomzodning sudlanganligi olib tashlanmagan yoki bekor qilinmagan holatlari va/yoki iqtisodiy xususiyatdagi huquqbuzarliklar bilan bog‘liq ravishda fuqarolik, ma’muriy, jinoiy yoki intizomiy javobgarlikka tortilganligi to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud emasligi;

- rahbarlik lavozimini egallash taqiqi mavjud emasligi – rahbarlik lavozimiga nomzod uchun;

- ishga nomzod va/yoki uning yaqin qarindoshlari haqida salbiy yoki obro‘sizlantiruvchi ma’lumotlar, shu jumladan ularning korrupsiyaviy, firibgarlik yoki boshqa noqonuniy faoliyatdagi ishtiroki mavjud emasligi;

- avvalgi ish joylaridan salbiy tavsiyanomalar mavjud emasligi;

- ishga nomzod va uning yaqin qarindoshlarining davlat mansabdor shaxslari bilan affillanganlik alomatlari mavjud emasligi;

- nomzodda manfaatlar to‘qnashuvi alomatlari mavjud emasligi.

3.4.2 Ko‘rsatilgan yo‘nalishlar bo‘yicha tekshiruv o‘tkazish majburiy hisoblanadi. Zarurat tug‘ilganda, har bir aniq holatda tekshiruv yo‘nalishlari ro‘yxati kengaytirilishi mumkin.

3.5 Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish natijalari.

3.5.1 Nomzod bo‘yicha o‘tkazilgan tekshiruv yakunlariga ko‘ra, Ijrochi tekshiruv natijalari to‘g‘risida hisobotni (mazkur Yo‘riqnoma B-ilovasiga muvofiq) tuzadi, uni tashabbuskorga yuboradi hamda o‘tkazilgan tekshiruv va uning natijalari haqidagi ma’lumotlarni ishga nomzodlarni tekshirish reyestriga (Yo‘riqnoma A-ilovasi) kiritadi.

3.5.2. Hisobotning 3-bo‘limidagi 3.1, 3.2, 3.3, 3.4-savollaridan biriga yoki bir nechtasiga “Ha” javobi (risk-indikator) mavjud bo‘lsa, Ijrochi ishga nomzod bo‘yicha tekshiruv yakunlariga ko‘ra salbiy xulosa beradi.

Agar 3.5, 3.6, 3.7-bandlardagi savollardan kamida bittasiga “Ha” javobi (risk-indikator) mavjud bo‘lsa, Ijrochi korrupsiyaviy risklar mavjud yoki mavjud emasligini baholashi shart.

Korrupsiyaviy risklar aniqlangan taqdirda, Ijrochi ularni kamaytirish choralarini taklif etadi yoki bunday risklarni kamaytirish imkoni bo‘lmagan holatda nomzod bo‘yicha salbiy xulosa chiqaradi.

3.5.3 Nomzod bo‘yicha salbiy xulosa mavjud bo‘lsa, uni ishga qabul qilish rad etiladi.

3.5.4 Salbiy xulosa mavjud bo‘lgan taqdirda nomzodni ishga qabul qilish faqat istisno holatlarda Jamiyat Boshqaruvi raisining (u bo‘lmagan taqdirda rais vazifasini vaqtincha bajaruvchi shaxsning yoki birinchi o‘rinbosarining) Qaroriga asosan amalga oshirilishi mumkin.

Bunda nomzod tanlanayotgan bo‘linma rahbari tomonidan tuzilgan, tegishli yo‘nalishni nazorat qiluvchi Boshqaruv raisi o‘rinbosari va Inson resurslari bilan ishlash va rivojlantrish boshqarmasi boshlig‘i bilan kelishilgan xizmat xati asos bo‘ladi. Xizmat xatiga tekshiruv natijalari to‘g‘risidagi hisobot nusxasi ilova qilinadi.

3.5.5 Agar nomzod ishga qabul qilinib, tekshiruv natijasida Ijrochi tomonidan korrupsiyaviy risklar aniqlangan va ularni kamaytirish choralarini taklif etgan bo‘lsa, bunday xodimning rahbari tavsiya etilgan choralarni o‘z vaqtida va samarali amalga oshirilishini nazorat qilish uchun mas’ul hisoblanadi.

3.6 Tekshiruvni hujjatlashtirish va hujjatlarni saqlash muddatlari.

3.6.1 Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish natijalari (shu jumladan Tekshiruv natijalari to‘g‘risidagi hisobot va unga doir boshqa hujjatlar) maxfiy hisoblanadi va ishga tanlash hamda tekshirish jarayonida ishtirok etmaydigan Jamiyat xodimlariga hamda boshqa uchinchi shaxslarga oshkor etilmaydi.

3.6.2 Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish reyestriga (mazkur Yo‘riqnomaga A-ilovasi) faqat Inson resurslari bilan ishlash va rivojlantrish boshqarmasi, Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati hamda Yuridik boshqarmaning vakolatli xodimlari, shuningdek, Jamiyat Boshqaruvi raisi tanishish huquqiga ega.

Mazkur ma’lumotlarga o‘z xizmat majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo‘lgan boshqa xodimlar Jamiyat Boshqaruvi raisining yozma roziligini olishi shart.

3.6.3 Nomzod ishga qabul qilingan taqdirda, tekshiruv o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi hisobotning asl nusxasi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan muddat va tartibda xodimning shaxsiy yig‘ma jildida majburiy saqlanadi.

Tekshiruv hisobotining nusxasi, shuningdek, uni tasdiqlovchi/unga doir hujjatlar va ma’lumotlar (masalan, skrinshotlar, ko‘chirmalar, vakolatli muassasalarga yuborilgan so‘rovlar va olingan javoblar va boshqalar) Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmatida kamida 5 (besh) yil davomida majburiy saqlanadi. Besh yildan so‘ng Jamiyat arxiviga o‘rnatilgan tartibda topshiriladi.

3.6.4 Jamiyatga ishga qabul qilinmagan nomzodlar bo‘yicha tekshiruv natijalari (tekshiruv hisobotlari hamda ularni tasdiqlovchi/unga doir hujjatlar va ma’lumotlar) O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmatida 1 (bir) yil davomida majburiy saqlanadi.

3.6.5 Xodimlarni tanlash jarayonida shaffoflikni ta’minlash va huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida nomzodlar C-ilovaga muvofiq nomzod rezyumesini to‘ldiradilar, shuningdek, Jamiyat xodimlari bilan tuziladigan mehnat shartnomalariga D-ilovaga muvofiq korrupsiyaga qarshi band kiritiladi.

4 “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari”AJning filiallariga ishga kiruvchi nomzodlar bilan ishlash

4.1 Filiallarda mavjud bo‘lgan barcha vakant lavozimlar bo‘yicha e’lon Jamiyat va uning filiallari internet saytidagi “Onlayn anketa” tizimiga kiritib boriladi. Masalan: Jamiyatning rasmiy veb sahifasi – https://www.uzbekistonmet.uz/oz/appeal/resume

4.2 “Onlayn anketa” tizimida vakant lavozimlar bo‘yicha malaka talablari mas’ul bo‘linmalar tomonidan taqdim etilgan so‘rovnomalarga asosan, lavozim vazifalari, talablari, ish tajribasi va boshqa qo‘shimcha talablar to‘g‘risida batafsil ma’lumotlar aks ettiriladi.

4.3 Vakant lavozimlar bo‘yicha kelib tushgan har bir nomzod rezyume anketasi (so‘rov varag‘i) taqdim etilgan so‘rovnomaga mosligi jihatidan o‘rganib chiqiladi. O‘rganish natijalari bo‘yicha tayyorlangan asoslangan xulosa har bir nomzodning tizimdagi profiliga kiritiladi.

4.4 Xulosaning haqqoniyligi, asoslantirilganligi javobgarligi filiallarning xodimlar bilan ishlash bo‘limi hamda tizimga mas’ul bo‘lgan boshqa xodimlar zimmasiga yuklatiladi.

4.5 Mazkur Yo‘riqnomaning 4.3-bandida belgilangan lavozimlar talabgorlariga Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati tomonidan yuqorida keltirilgan tartibda tekshirilgani va belgilangan xulosa taqdim etilganidan so‘ng suhbatga taklif etishga ruxsat etiladi.

4.6 Nomzodlar suhbatga (rezyume anketasida ko‘rsatilgan) ularning shaxsiy telefon raqamlari yoki shaxsiy elektron pochtalari orqali taklif etiladi.

4.7 Nomzodlikka talabgor vakant lavozim talablariga mos deb topilmagan taqdirda ham “Onlayn anketa” tizimida nomzod bo‘yicha asoslantirilgan xulosa kiritiladi.

4.8 Nomzodlar tomonidan yuborilgan rezyume anketa bo‘yicha tashkilot xulosasini “Onlayn anketa” tizimidagi “Ariza holatini tekshirish” sahifasi orqali bilish mumkin.

4.9 Suhbatga chaqirilgan nomzodlar tomonidan Jamiyat rasmiy saytida joylashgan https://www.uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/6366 Korrupsiyaga qarshi Korrupsiyaga qarshi ichki me’yoriy hujjatlar bilan tanishib chiqilishi va suhbatda ushbu yo‘nalishda savol javob qilinishi e’tiborga olinishi kerak.

4.10 Filiallarda ishga qabul qilish tanlovi bo‘yicha tuzilgan ishga qabul qilish komissiya tarkibi quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha mas’ullardan iborat bo‘lishi lozim:

- Yo‘nalish bo‘yicha mas’ul rahbar;
- Inson resurslari bilan ishlash va rivojlantrish boshqarmasi boshlig‘i;
- Yuridik boshqarma vakili;
- Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati boshlig‘i.

4.11 Test jarayonlarini video tasvirga yozib olish majburiyligi ta’minlanishi kerak.

5 Yakuniy qoidalar

5.1 Mazkur Yo‘riqnoma talablarini buzgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

A-ilova
(Majburiy)

“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari”AJda ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish REYESTRI

T/r	Tekshiruv o‘tkazish bo‘yicha so‘rov olingan sana	Nomzodning F.I.SH.	“O‘zbekiston MET”AJ dagi bo‘sh ish o‘rni	“O‘zbekiston MET”AJ bo‘linmasi	Tekshiruvni amalga oshirgan shaxsning F.I.SH.	Nomzodni tekshirish bo‘yicha hisobot sanasi va raqami	Tekshiruv natijasi (ijobiy / risklar aniqlandi)	Izoh
1	2	3	4	5	6	7	8	9
1								
2								
3								
4								
5								

B-ilova
(Majburiy)

Ishga qabul qilinayotgan nomzodni tekshirish bo‘yicha Hisobot
_____-son 2026-yil _____-_____

1.	**Asosiy ma’lumotlar**	
1.1	Nomzodning F.I.SH.	
1.2	Tug‘ilgan yili	
1.3	O‘rni / bo‘sh ish o‘rni	
1.4	Bo‘linma	
1.5	Aloqa uchun telefon	
1.6	Elektron pochta manzili	
2.	**Ish tajribasi**	
2.1	Avvalgi ish joyi (teskari xronologik tartibda), lavozimi	
2.2	Avvalgi ish joyidan olingan salbiy baholar mavjudligi	☐ Ha ☐ Yo‘q Izohlar: Manbalari:
3.	**Tekshirish natijalari**	
3.1	Ushbu Yo‘riqnomaning 3.2.1. bandida ko‘zda tutilgan to‘liq hujjatlar paketi olindimi?	☐ Ha ☐ Yo‘q Yetishmayotgan hujjatlar: Hujjatlar yo‘qligining sabablari:
3.2	Nomzoddan olingan hujjatlar, shu jumladan rezyumedagi ma’lumotlarda ishonchsizlik belgilari va o‘zlari haqlaridagi ayrim ma’lumotlarni yashirish va/yoki soxtalashtirish alomatlarining mavjudligi	☐ Ha ☐ Yo‘q Izohlar: Manbalari:
3.3	Nomzodda iqtisodiy xarakterdagi qonun buzilishlari bilan bog‘liq holda tugatilmagan sudlanganlik va / yoki uning fuqarolik, ma’muriy, jinoiy yoki intizomiy javobgarlikka tortilish faktlari mavjudligi	☐ Ha ☐ Yo‘q (agar ha bo‘lsa, asosni ko‘rsating) Izohlar: Manbalari:
3.4	Rahbarlik lavozimlarini egallashi uchun taqiqlar mavjudligi (Rahbarlik lavozimiga nomzod uchun)	☐ Ha ☐ Yo‘q Izohlar: Manbalari:
3.5	Nomzod va uning yaqin qarindoshlarining davlat miqyosidagi mansabdor shaxslar bilan bog‘liqlik belgilarining mavjudligi:	☐ Ha ☐ Yo‘q
	1) Nomzod hozirgi vaqtda (o‘rindoshlik asosida) davlat miqyosidagi mansabdor shaxs	☐ Ha ☐ Yo‘q (agar ha bo‘lsa, u holda ish joyi, lavozimi, asosiy vazifalarini ko‘rsating, shuningdek, Jamiyatda ishlash

	lavozimini egallagan	uchun tegishli ruxsatnomaning mavjudligini tekshiring) Izohlar: Manbalari:
	2) Nomzod sobiq davlat miqyosidagi mansabdor shaxs bo‘lgan	☐ Ha ☐ Yo‘q (agar ha bo‘lsa, u holda ish davri, ish joyi, lavozimi, asosiy vazifalarini ko‘rsating) Izohlar: Manbalari:
	3) Nomzodning yaqin qarindoshlari amaldagi davlat miqyosidagi mansabdor shaxslar hisoblanadilar	☐ Ha ☐ Yo‘q (agar ha bo‘lsa, u holda familiyasi, ismi, otasining ismi, qarindoshlik darajasi, ish joyi, lavozimi, asosiy vazifalarini ko‘rsating) Izohlar: Manbalari:
3.6	Nomzodda manfaatlar to‘qnashuvi alomatlarining mavjudligi	☐ Ha ☐ Yo‘q
3.7	1) Nomzod yoki uning yaqin qarindoshlari rahbarlik lavozimi va / yoki qaror qabul qilish bilan bog‘liq lavozimni egallaganlar va / yoki boshqa kompaniyalarning (shu jumladan raqib kompaniyalarning) boshqaruv organlari tarkibiga kiradilar	☐ Ha ☐ Yo‘q (agar ha bo‘lsa, u holda familiyasi, ismi, otasining ismi, qarindoshlik darajasi (agar manfaatlar to‘qnashuvi Nomzodning qarindoshlari bilan bog‘liq bo‘lsa), kompaniyaning nomi, lavozimi) Izohlar: Manbalari:
	2) Nomzod yoki uning yaqin qarindoshlari davlat muomalasida bo‘lmagan har qanday tashkilotning ustav kapitalidagi aksiyalari yoki o‘z ulushlariga ega yoki “Toshkent” Respublika fond birjasi yoki boshqa har qanday fond birjasida davlat muomalasida bo‘lgan har qanday tashkilotning qimmatli qog‘ozlarining 5% yoki undan ko‘pi yoki boshqa kompaniyalarning (shu jumladan, raqib kompaniyalarning) boshqa faoliyat natijalarida boshqa turdagi shaxsiy manfaatdorlikka (shu jumladan, investitsiyalarni amalga oshirish yo‘li bilan) ega	☐ Ha ☐ Yo‘q (agar ha bo‘lsa, u holda familiyasi, ismi, otasining ismi, qarindoshlik darajasi (agar manfaatlar to‘qnashuvi Nomzodning qarindoshlari bilan bog‘liq bo‘lsa), kompaniyaning nomi, lavozimi) Izohlar: Manbalari:
	3) Boshqa belgilari	☐ Ha ☐ Yo‘q Izohlar: Manbalari:
	Nomzod va / yoki uning yaqin qarindoshlari haqida salbiy va qadrsizlantiruvchi, shu jumladan ularning korrupsiya, firibgarlik va	☐ Ha ☐ Yo‘q Izohlar: Manbalari:

	boshqa qonunga qarshi faoliyati to‘g‘risida ma’lumotlar mavjudligi	
	Nomzodga nisbatan boshqa xavf-xatar ko‘rsatkichlari (shu jumladan, salbiy kredit tarixi yo‘qligi; ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida taqdim etilgan turmush tarzi bilan cheklanmay rasmiy ish haqi darajasiga mos kelmaydi va hokazo)	☐ Ha ☐ Yo‘q Izohlar: Manbalari:
	Boshqa ma’lumotlar (shu jumladan, intervyu – suhbat natijalari (o‘tkazilganda)	☐ Ha ☐ Yo‘q Izohlar: Manbalari:
	4. Korrupsiya xavflarini tahlil qilish (3.5, 3.6 va/yoki 3.7 bandlarga “ha” javobi berilganda) va ularni kamaytirish choralari bo‘yicha tavsiyalar.	


5	**Xulosa**		
		Ha / Yo‘q	Izohlar
3.1, 3.2, 3.3 va 3.4 bandlarda xavf ko‘rsatkichlarining mavjudligi			Ko‘rsatilgan toifada hech bo‘lmaganda bitta xavf mavjud bo‘lganda ham salbiy xulosa
3.5, 3.6 yoki 3.7 bandlarda xavf ko‘rsatkichlarining mavjudligi			Korrupsiya xavfi yuqori bo‘lsa va ularni kamaytirish bo‘yicha choralar ko‘rishning imkoniyati bo‘lmasa salbiy xulosa
YAKUNIY NATIJA		(salbiy xulosa / ijobiy xulosa)	
TAVSIYALAR (aniqlangan xavf-xatarlarni hisobga olgan holda)			

Ijrochi _____ _____ 202__-y. ____- _____
(F.I.SH.) *(imzo)* *(yil, sana, oy)*

Yuridik boshqarma
boshlig‘i _____ _____ 202__-y. ____- _____
(F.I.SH.) *(imzo)* *(yil, sana, oy)*

C-ilova
(Majburiy)

(Xodim ma’lumotnomasi)



MA’LUMOTNOMA

Abdullayev Abdulla Abdullayevich

202___-yil ___-_____ dan:

Ayni vaqtdagi lavozimi (tashkilot nomi, boshqarma, bo‘lim, xodim lavozimi)

Tug‘ilgan yili:
___.____.19____-y.

Tug‘ilgan joyi:
_____ viloyati, _____ tumani

Millati:
O‘zbek (tojik, qoraqalpoq va h.k)

Partiyaviyligi:
Ha/yo‘q

Ma’lumoti:
Oliy (o‘rta)

Tamomlagan:
_____-y. _____ instituti/universiteti (kunduzgi)
iqtisodiyot/ yurisprudensiya va h.k.

Ma’lumoti bo‘yicha mutaxassisligi:

Ilmiy darajasi:
Ha/Yo‘q

Ilmiy unvoni:
Ha/Yo‘q

Qaysi chet tillarini biladi:
(ingliz, rus tillari va h.k)

Davlat mukofotlari bilan taqdirlanganmi (qanaqa):
Ha/Yo‘q

Xalq deputatlari, respublika, viloyat, shahar va tuman Kengashi deputatimi yoki boshqa
saylanadigan organlarning a’zosimi (to’liq ko’rsatilishi lozim):
Ha/Yo‘q

MEHNAT FAOLIYATI

_____-_____-yy. - _____
_____-_____-yy. - _____
…
…

_____ning yaqin qarindoshlari haqida
(F.I.Sh.)

C-ilova davomi

MA’LUMOT

Qarindoshligi	Familiyasi, ismi va otasining ismi	Tug‘ilgan yili va joyi	Ish joyi va lavozimi	Turar joyi
Otasi				
Onasi				
Akasi/ Ukasi				
Singlisi/Opasi				
Turmush o‘rtog‘i				
O‘g‘li/Qizi				
Qaynotasi/ Qaynonasi				

Qo‘shimcha ma’lumotlar

Telefon:

Elektron pochta manzili:

Qo‘shimcha ta’lim (treninglar, kurslar va h.k.)

Sana		Nomi *(trening, kurs va h.k)*	Sertifikat
Kirish *(oy / yil)*	**Tugatish** *(oy / yil)*		

Nomzod va uning yaqin qarindoshlari tomonidan yuridik shaxslar ulushlari yoki aksiyalariga egalik qilish haqida ma’lumotlari:

Siz yoki Sizning yaqin qarindoshlaringiz har qanday tashkilotning ommaviy muomalada bo‘lmagan aksiyalariga yoki ulushlariga (egalik qiymati / foizidan qat’iy nazar) yoki har qanday tashkilotning “Respublika fond birjasi”da yoki boshqa fond birjasida ommaviy muomalada bo‘lgan 5% va undan ortiq qiymatli qog‘ozlariga egami ? Ha / Yo‘q

Agar “Ha” bo‘lsa, iltimos, quyidagi jadvalni to‘ldiring:

Ulush yoki aksiya egasining F.I.SH.	Shaxs ulushiga ega bo‘lgan tashkilotning nomi	STIR raqami	Tashkilot joylashgan manzil	Tashkilot faoliyati turi	Ulushi / egalik foizi (%)

C-ilova oxiri

Kompyuter mahorati:

_____

Xizmat safarlariga munosabati:	Ma’qul / Bo‘lmagani ma’qul
Haydovchilik guvohnomasi borligi:	Ha / Yo‘q (agar “Ha” bo‘lsa, toifasini ko‘rsating)
Navbatlarda ishlashga munosabat:	Roziman / Roziman emas (ishlab chiqarish xodimlari uchun)
Harbiy hisobga olish haqida:	
Sudlanganlik haqida ma’lumot:	Bo‘lmagan / Bo‘lgan, ammo sudlanganlik bekor qilingan / Bor
Tavsiyalar:	
Qo‘shimcha ma’lumot:	
Ishga chiqish mumkin bo‘lgan sana	

Men, _____(F.I.SH.), tasdiqlaymanki, yuqoridagi jadvalda ko‘rsatilgandan tashqari boshqa yaqin qarindoshlarim quyidagi joylarda ishlamaydilar:

- “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ,
- filiallari, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar hamda Jamiyat ushbu jamiyatlar va tashkilotlar tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni belgilay oladigan boshqa tashkilotlar,
- O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati organlari,
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi va O‘zbekiston Respublikasi viloyatlari davlat hokimiyati organlari,
- Boshqa elektr tarmoqlari (shu jumladan xizmat ko‘rsatish) kompaniyalari (shu jumladan xorijiy), shu jumladan ularning filiallari, vakolatxonalari va qo‘shma korxonalari.

Men tomonimdan ko‘rsatilgan ma’lumotlar to‘liq va ishonchli bo‘lib, ular ehtimoliy ish beruvchi xohishiga ko‘ra tekshirilishi va foydalanilishi mumkin.

202__-y. ____-_____
(to‘ldirilgan sana)

_____
imzo

D-ilova
(Majburiy)

“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ xodimlarining mehnat shartnomalariga kiritiladigan korrupsiyaga qarshi eslatma

1. Jamiyat xodimi o‘z xizmat vazifalarini bajarishda Jamiyat tomonidan qabul qilingan ichki normativ hujjatlar, jumladan, biznes etikasi va korrupsiyaga qarshi harakatlarga amal qilishni o‘z zimmasiga oladi.

Jamiyat xodimi o‘z xizmat mansabi va vakolatlarini suiiste’mol qilmaslik, shu jumladan quyidagilarni qilmaslik majburiyatini oladi:

- Pul mablag‘lari yoki boshqa moddiy boyliklar, mol-mulk, mulkiy huquqlar yoki boshqa moddiy va/yoki nomoddiy foyda olish yoki boshqa noqonuniy maqsadlarga erishish uchun har qanday shaxslar foydasiga ta’sir o‘tkazish maqsadida yoki boshqa noqonuniy maqsadlarga erishish uchun vositachilikda bevosita yoki bilvosita ishtirok etishni taklif qilmaslik, va’da bermaslik, ruxsat bermaslik, tashabbus ko‘rsatmaslik, bermaslik va teng ravishda olmaslik, talab qilmaslik va olish uchun rozilik bermaslik;
- Atrofdagilar tomonidan korrupsiya harakatlarini amalga oshirish yoki ishtirok etishga tayyor deb talqin qilinishi mumkin bo‘lgan xatti-harakatlardan saqlanish;
- Manfaatlar to‘qnashuvi holatlarining kelib chiqishining oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar qabul qilish, ular yuzaga kelganda o‘z vaqtida ular haqida Jamiyatni xabardor qilish, Jamiyatning ichki normativ hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiq ularni tartibga solishga ko‘maklashish;
- Jamiyatning boshqa xodimi tomonidan sodir etilgan korrupsiya harakatlari faktlari yoki shubhalari aniqlangan holatlarda, bu haqda “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ korrupsiyaga qarshi kurashish Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmatiga yoki “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari”AJ aloqa kanallari orqali olingan xabarlarni qabul qilish va qayta ishlash bo‘yicha Reglamentda ko‘rsatilgan aloqa kanallaridan biriga xabar berish.

2. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, shuningdek, Jamiyatning ichki normativ hujjatlarida ko‘zda tutilgandek, korrupsiyaga qarshi talablarni buzganligi uchun xodim O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ichki hujjatlarda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

Axborot ma’lumotlari

Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati tomonidan **ishlab chiqilgan**

Xizmat boshlig‘i A.Z. Raxmonov

Kelishilgan

Boshqaruv raisining
birinchi o‘rinbosari B.X. Murodov

Boshqaruv raisining
birinchi o‘rinbosari S.S. Artikov

Boshqaruv raisining investitsiyalar
bo‘yicha o‘rinbosari F.M. Qurbonov

Boshqaruv raisining moliyaviy-iqtisodiy
masalalar bo‘yicha o‘rinbosari A.A. Yuldashev

Iqtisodiyot va rejalashtirish
boshqarmasi boshlig‘i P.N. Xidirov

Buxgalteriya hisobi va hisobotlari boshqarmasi
bosh buxgalteri S.N. Xolboyev

Xaridlar transformatsiya
ofisi boshlig‘i T.A. Rasulov

Sanoatda kooperatsiya aloqalarini
kengaytirish, mahalliylashtirish
va standartlashtirish bo‘limi boshlig‘i I.M. Begaliyev

Inson resurslari bilan ishlash va rivojlantirish
boshqarmasi boshlig‘i I.I. Xamidov

Ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha
boshqaruv raisi maslahatchisi O.A. To‘xtashev

Yuridik boshqarmasi boshlig‘i Sh.S. Axmedov

Norma nazoratchisi L.B. G‘oziyeva